

Oilaviy Munosabatlarning Pedagogik-Psixologik Xususiyatlari

*Baratov Nasriddin Karshibayevich*¹

Annotatsiya: Oiladagi barcha jarayonlar pedagogik va psixologik xususiyatga ega. Shu asosda ushbu maqolada oilaviy munosabatlarning pedagogik-psixologik xususiyatlari to'g'risida fikr yuritilgan.

Katil so'zlar: Jamiyat, oila, ijtimoiy-psixologik muhit, huquqiy, tibbiy, jismoniy, ma'naviy, simptomatik, emotsional, avtomatik, terapiya.

Oila qon-qarindoshlik, qarindoshchilik (nikoh orqali) yoki birga istiqomat qilish orqali bog'langan odamlardan iborat ijtimoiy guruhdir. Ko'p jamiyatlarda oila bolalar ijtimoiylashuvi uchun asosiy institut vazifasini o'taydi. Oila - nikoh yoki tug'ishganlikka asoslangan kichik guruh. Uning a'zolari ro'zg'orining birligi, o'zaro yordami va ma'naviy mas'uliyati bilan bir-biriga bog'langan. Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari - inson avlodini davom ettirishdan, bolalarni tarbiyalashdan, oila a'zolarining turmush sharoitini va bo'sh vaqtini samarali uyushtirishdan iboratdir.

Oila - ijtimoiy, tabiiy omillar asosida shakllangan kichik jamoa sifatida ikki jinsga mansub bo'lgan shaxslar o'rtasidagi munosabatlarning birga hayot qurib nasl qoldirish, faqat farzandni dunyoga keltirish emas, balki ularni ma'naviy va jismoniy kamol toptirib, hayotga mustaqil qadam qo'yishiga sharoit yaratishdir.

Oila va oilaviy munosabatlar masalasi o'tgan asrlarda ham davrning muhim muammosi bo'lib kelgan. Zotan har bir inson umrining ko'p vaqti oilada o'tadi. Shuning uchun oiladagi nozik ruhiy, hissiy – psixologik holatlar bolalar ichki hissiyotlari va ruhiyatiga katta ta'sir o'tkazadi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, bola tarbiyasiga eng avvalo ota – onaning shaxsi, hayot faoliyatlari, turmush tarzi bilan birgalikda oiladagi psixologik muhitning ta'siri katta bo'ladi. Oilada faqatgina ikki shaxs emas balki bolalarning ham tarbiya jarayonlari aynan ota-onaning oiladagi faoliyatiga bog'liqligini ko'rish mumkin. Oilada er va xotinning janjallashuvi ham bolaga zarar keltirishi va psixologik travmalarga olib kelishi mumkinligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Tarixiy ma'lumotlarning guvohlik berishicha, oilaviy munosabatlar madaniyati sharq xalqlarida juda qadimdan rivojlangan ijtimoiy voqelik ekanligini ko'rsatadi. Oilaviy munosabatlar va bu sohaga oid qarashlar tizimida Sharq mutafakkirlaridan biri, butun Yevropa xalqlari ham uning qomusiy bilimdonligini tan olgan alloma Abu Ali ibn Sinodir. Buyuk olim sifatida u barcha hodisalarning ilmiy mohiyatini ochib berishga harakat qilgan. Ibn Sinoning pedagogik va psixologik qarashlari ijtimoiy asosda qurilgan bo'lib, u bola tarbiyasida umuminsoniy tamoyilning qo'llanilishini yoqlab chiqqan va ota-onalarga bolani qattiq tana jazosidan ko'ra, shaxsiy ibrat orqali tarbiyalash ma'qulligini uqtirgan. Mutafakkirning qalamiga mansub bo'lgan «Donishnoma», «Risolayi ishq», «Tib qonunlari», «Uy xo'jaligi» kabi qator asarlari O'rta Osiyo xalqlari axloq -odobi, psixologiyasi va tabobat olamida alohida o'rin tutgan yirik ilmiy tadqiqotlar hisoblanadi. Oilaviy munosabatlarning turli tomonlarini yoritarkan, Ibn Sino, avvalombor oila boshlig'i oldiga qator talablarni qo'yadi. Oila boshlig'i, deb yozadi u, ham nazariy, ham amaliy jihatdan oilada tarbiya masalalarini mukammal o'zlashtirmog'i lozim. Agar oila boshlig'i tajribasiz bo'lsa, u o'z a'zolarini yaxshi tarbiyalay olmaydi, oxir-oqibat u yaxshi ijobiy natijalarga erisha olmaydi, yomon tarbiya nafaqat ushbu oila, balki qo'shnilariga, mahalla -ko'ygaga ham yomon ta'sir qilishi mumkin.

¹ O'qituvchi, JDPU



Yana bir mutafakkir Abu Nasr Forobiyning inson kamoloti, baxti, ta'lim va tarbiyasi, umuman axloqi, dinga munosabati haqidagi qarashlari umumfalsafiy qarashlar va tushuntirishlardan iborat o'git bo'lib, axloq nazariyasini boyitadi. Uning ta'lim o'gitlarida keltirilishicha, haqiqiy baxt bir odamning boshqasiga nisbatan g'ayirliqlik, zulmi yo'qolgandagina bo'ladi, oila a'zolarining bir-birlariga samimiy munosabatlari, mehr-u oqibatlar esa ana shu oiladagi a'zolarining baxtini tashki qiladi. Bundan tashqari, har bir ota - onaning o'z farzandlari uchun birlamchi ustoz, yo'l ko'rsatuvchi ekanligi va aynan ular bolada ta'lim-tarbiyaga kerakli tayyorgarlik holatini shakllantirish ta'siriga ega ekanligi to'g'risidagi xulosalar mutafakkir qarashlarining hozirgi kunlar uchun ham naqadar ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi.

O'rta asrlarning buyuk arbobi, olim-ensiklopeist Abu Rayhon Beruniy, Forobiy qarashlari ta'sirida qator fanlar bobida o'z izini qoldirgan donishmanddir. Uning ko'pgina asarlarida inson odobi va axloqi xususidagi noyob fikrlar o'z ifodasini topgan. Axloq-odob egasi bo'lgan inson eng avvalo o'z yurish-turishi, muomala madaniyatida, hayot kechirishida, oila barqarorligida na'muna bo'lishi kerakligi haqidagi fikrlari olimning oila etikasi bo'yicha ibratli qarashlaridan na'munadir: "Inson o'z ehtiroslariga hukmron, ularni o'zgartirishga qodir, o'z jon va tanini tarbiyalar ekan, salbiy jihatlarni maqtagudek narsalarga aylantirishga, uni ma'naviy shifokorlik bilan davolashga hamda asta-sekin, axloq haqidagi kitoblarda ko'rsatilgan usullar bilan illatlarni bartaraf etishga qodirdir". Beruniy ustozlari izidan borib, o'zining gumanistik qarashlari bilan oila psixologiyasiga munosib hissasini qo'shdi. U insonlar o'rtasida o'zaro bir-birlarini tushunish, tenglik va boshqaruvda adolatni himoya qilib chiqdiki, bu qarashlar bizning davrimizda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

XI asrning buyuk mutafakkiri va shoiri Yusuf Xos Hojib o'zining «Qutadg'u bilig» - «Saodatga boshlovchi bilim» - kitobida va undan keyingi qator asarlarida o'zining axloq hamda hayotga oid qarashlarini bayon etadi. Inson faqat jamiyatdagina kamolotga yetishi mumkin, muloqot va ijtimoiy - foydali mehnat uning rivojlanishi va yashashining mezonidir, deb hisoblaydi. «Boshqa odamlarga foydasi tegmaydiganing son - o'likdir», - deb yozadi u. "Yaxshi axloqiy fazilatliarga ega kishi — har qanday qimmatbaxo durlardan ham qimmatlidir". Shoirning fikricha, farzand ko'rish va uni tarbiya berish har bir inson uchun buyuk baxtdir, ularsiz hayotning ma'nosi yo'q. Lekin bu narsa ota-onaga juda katta mas'uliyat yuklaydiki, uning uddasidan chiqmoq, har bir ota - ona uchun ham farz, ham qarzdir. Shuning uchun ham Yusuf Xos Xojib oilaviy tarbiyani bola axloqiy taraqqiyotining asosi, deb hisoblagan: "gap bolaning xulqi yomon bo'lsa, bunda bolaning aybi yo'q, hamma ayb — otasida". Shuning uchun ham ota-ona, ayniqsa, ota bunga katta e'tibor bermog'i lozim.

Turmush madaniyati, odob-axloq, sevgi-muhabbat borasida o'ziga xos qaytarilmas fikrlar sohibi buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiyning "Mahbubul-qulub" yoki "Qalblarning sevgisi" deb nom qo'yilishi bejiz emas. Chunki bu asarda Navoiy insonlarga qalbidagi eng kerakli o'gitlarini bayon etib, ularni turmushdagi, oilaviy hayotdagi turli hodisalar va vaziyatlardan chiqishga imkon beruvchi yaxshi fazilatlar, ularni tarbiyalash masalalariga diqqatni qaratadi. Risolaning "Uylanish va xotinlar to'g'risida" bobida u uylanish va uning foydasi, oilaviy munosabatlar haqida durdona fikrlarni bayon etadi, unda asosan insoniyat dunyosida mavjud bo'lgan 3 xil sevgining naqadar go'zal, tabiiy va insoniyat taraqqiy oti uchun zarurligini zikr qiladi. Insoniy sevgi, chin muhabbat, ikki xil - jinsning turmushda baramollik kasb etishi kabi g'oyalarni tarannum etgan bu nodir asar bugungi davrimiz uchun ham g'oyat qimmatlidir.

Shu qatorda ta'kidlash joizki, 40 yillik faoliyati davomida doktor Bouen yangi nazariyani hamda uning nazariyasiga asoslangan yangi psixoterapiya usulini ishlab chiqdi. Bouen nazariyasining uni an'anaviy psixoterapiya nazariyasidan ajratib turadigan asosiy asosi: oila - bu hissiy birlik va oila emotsional birlikning bir a'zosining hissiy faoliyatidagi har qanday o'zgarish taxminiy va avtomatik ravishda hissiy faoliyatdagi o'zgarishlar bilan qoplanadi. Bouen uchun avvalgi an'anaviy psixologiya o'ylaganidek shaxs emas, balki hissiy faoliyatning asosiy birligi bo'lgan. Ushbu tamoyil ikkita muhim ahamiyatga ega:

- 1) har bir oila a'zosining hissiy faoliyati, bitta oila a'zosida tibbiy, psixiatrik yoki ijtimoiy kasallik paydo bo'lishida muhim rol o'ynaydi
- 2) davolash simptomatik odamga qaratilishi shart emas.



Simptomatik odamda to'g'ridan-to'g'ri davolanishga majbur bo'lmaslik, og'ir klinik holatlarga yangi moslashuvchanlikni keltirib chiqardi - masalan, simptomatik odam terapiyadan voz kechgan yoki faqat oila bosimi ostida terapiyaga borgan. Binobarin, agar oilaning bir a'zosi o'zining hissiy faoliyatini o'zgartirishi mumkin bo'lsa, agar u o'zi mavjud bo'lsa va u oilada hisobga olinadigan bo'lsa, butun oila o'sha odamning o'zgarishi qobiliyatiga javoban o'z faoliyatini yaxshilaydi. Bu sinaluvchilarga «oilaviy terapiya», albatta, butun oila a'zolari bilan maslahatlashuvlarni anglatishini tushunishiga yordam berishi kerak. Aksincha, «oilaviy terapiya» bu oila a'zolari o'rtasida o'zaro munosabatni kontseptsiyalashtiradigan fikrlash uslubiga asoslangan maslahatdir. Ushbu asosda Bouen o'zining nazariyasini aks ettiruvchi sakkizta prinsipni ishlab chiqdi:

- 1) o'zlikni farqlash,
- 2) uchburchak,
- 3) yadroviy oilaviy hissiy jarayon,
- 4) oilani proektsiyalash jarayoni,
- 5) ko'p avlodlarni uzatish jarayoni,
- 6) birodarlarning pozitsiyasi,
- 7) hissiy uzilish va
- 8) jamiyatdagi hissiy jarayonlar.

An'anaviy nazariy til ushbu kuzatuvlarni yetarli darajada tavsiflamaganligi sababli, Bouen oilaviy diagrammalarni chizgan. Ushbu diagrammalar yoki «oilaviy daraxtlar» bebaho bo'lib chiqdi, chunki ular

- 1) o'yinchilarni to'g'ri ushlab turishga yordam berishdi,
- 2) muhim oilaviy faktlarni tuzishdi,
- 3) murakkab oilaviy naqshlarni aniq geshtaltini taqdim etishdi,
- 4) terapevt va mijozga qanday qilib faraz qilishda yordam berishdi klinik muammo oilaviy kontekst bilan bog'liq edi va muammo va kontekst vaqt o'tishi bilan qanday rivojlandi,
- 5) terapevt va bemor uchun tizimlarning fikrlashini osonlashtirdi.

Oilaviy diagrammalarni chizish amaliyoti Monika Makgoldrik tomonidan «Genograms in Family Assessment» nomli nashrida yagona terapevtik vosita sifatida ishlab chiqilgan. Keyinchalik, genogramma oilaviy tizimlar nazariyasining ramziga aylandi. Yuqoridagi ilmiy nazariyalarning amaliy ahamiyati sifatida yosh oilalarda munosabatlar tizimini tashkillashtirish asosida quyidagi vazifalar muhim ahamiyatga ega sifatida izohlanadi.

1. Ikki yoshning bir-birini hurmat qilishi
2. Er-xotin rolidagi o'zaro bog'liqlik holati
3. Bir-birini tushunish va qo'llab quvvatlash asosida oila tizimini shakllantirish
4. Ota-onalik hamda kelin-kiyov ma'suliyatini to'g'ri anglash orqali munosabatlarni shakllantirib borish.

Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa sanalsa-da, jamiyatdagi mavjud iqtisodiy, ijtimoiy, mafkuraviy munosabatlar bilan belgilanadi va ular ta'sirida o'zgarib boradi. Shunga muvofiq, har bir jamiyat o'zgarib mos oila tipini, oilaviy munosabatlarni o'rnatadi. Oila tushunchasi butun jamiyat uchun juda muhim sanaladi va hattoki uni maxsus fan sifatida ham o'rganiladi. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi yosh oilalarda er-xotin munosabatlari o'ziga xos hududiy, etnik, jinsiy, yosh va individual psixologik xususiyatlarga ega bo'lgan er-xotin munosabatlari shakllanishining eng nozik va hal qiluvchi shakli hisoblanadi. U yoki bu oiladagi er-xotinlik munosabatlari boshqa oiladagi er-xotin munosabatlariga mutonosib bo'lishi mumkin. Negaki yosh oila qurgan er-xotinlar turli xil shaxslararo



munosabatlar tizimi, turlicha taomilga ega bo'lgan oilalarda tarbiyalangan, shaxs sifatida shakllangan individlardan tashkil topaganligi hisoblanadi. Lekin shunga qaramasdan maxsus psixologik tadqiqotlarda va ulardan olingan natijalar asosida yozilgan ilmiy psixologik adabiyotlarda yosh oilalarda er-xotin munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishining umumiy mexanizmlarga oid tegishli ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Er va xotinlarning oiladagi muloqoti, shaxslararo muloqotning umumiy qonuniyatlariga bo'ysunish bilan birga, avvalgi ishdan tashqari, bo'sh vaqtlarini birgalikda o'tkazish bilan shartlangan o'ziga xos xususiyatlariga ham ega. Hamkasblar, o'rtoqlar, dugonalar do'stlar va sevishganlar hamma vaqt ham birga bo'lish imkoniyatiga ega emaslar, aksincha, o'z muloqotlarini o'z lari xohlagan vaqtlarida biroz kam aytirib, hatto uzib (to'xtatib) qo'yishlari ham mumkin (uchrashuvga borishi lozimligini «unitib» qo'yish, kutilmaganda «juda band» bo'lib qolishi mumkin va sh.k). Er-xotinlar esa ko'pincha bunday imkoniyatlardan mahrumdirlar. Ular bir xonadonda, ko'pincha bir xonada birga bo'lishga «mahkum» etilgan. Albatta, bu gaplar ko'pchilik yoshlarimizda (ayniqsa, bir-birlarini sevuvchi yoshlarda) ishonmaslik, tushunmovchilik, e'tiroz tug'dirishi mumkin, chunki ular, o'zing uchun aziz, sevimli bo'lgan odam bilan birga bo'lish, uning yonida bo'lish «majburiyati» bu eng orziqib kutilgan orzuning ro'yobga chiqishi-ku deb hisoblashlari mumkin. Shu sababli vujudga keladigan tushinmovchiliklar nafaqat intim munosabat, jinsiy aloqa, balki ancha ochiq, yaqin, ma'naviy muloqotlarga ta'sir ko'rsatadi. Intim (fransuz tilida - intime - «yaqin», «qulay», «ko'ngildan», lotinchada intim - «chuqur», «chin dildan») muloqotlar deyilganda, psixologiyada shunday muloqotlar tushuniladiki, unda odam boshqa odam oldida qandaydir bir ijtimoiy rol (rahbar yoki xodim, sotuvchi yoki vrach va shu kabi) bajaruvchi emas, balki aynan «yagona» shaxs sifatida - nodir, takrorlanmas mavjudot sifatida namoyon bo'ladi, bunda u mutlaqo oshkora, ochiq, hech narsadan qo'rqmay, o'zining ichki olami, o'zining barcha xususiyatlarini uyalmasdan namoyon qila oladi. Bunday muloqotda suhbatdosh odamlar o'rtasida chuqur va keng o'zaro oshkoralik (jismoniy, psixologik, shaxsiy, ma'naviy) amalga oshadi. Bunda suhbatdoshlarning tanasi, fikri, hissiyoti, xarakteri va hayotiy rejalari, qadriyatleri va fikrlari ochiladi.

Xulosa qilib aytganda oilaviy munosabatlarning ko'pi psixologik xususiyatlar bilan bog'liq hisoblanadi. Insonlar jamiyatda munosib oila qurib yashashlari, umuman olganda oiladagi barcha psixologik jarayonlar olingan tarbiya, ijtimoiylashuv jarayonlariga ham bog'liqdir. Agar oilada er va xotin munosabatlari mustahkam bo'lsa ular baxtli bo'lishga intilishsa va bir birlarini tushunib yashashsa albatta oilani mustahkam qilishga erishiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida» 2020 yil 18 fevraldagi PF-5938-son Farmoni <https://lex.uz/docs/4789015>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida 2020 yil 18 fevraldagi PQ-4602-son qarori <https://lex.uz/docs/4789015>
3. G'oziyev E. O'zbek xalqining etnopsixologiyasiva bola tarbiyasida o'zbek oilasining etno psixologik muammolari // Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. –Toshkent, 1993.
4. Yusupov E. Oila ma'naviyat bulog'i. - T. 2003.
5. Bowen, Murray (1966), "Klinik amaliyotda oila nazariyasidan foydalanish", Klinik amaliyotda oilaviy terapiya (qayta nashr etilgan), Lanham, MD: Rowman and Littlefield - 2004
6. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. - T.: Fan va texnologiya nashriyoti, 2008.
7. Akramova F.A. Yoshlarni oilaga tayyorlashning asosiy omillari va ularning psixologik xususiyatlari // Oila va maktab. 2015. № 10.
8. Sh.Qo'chqarov. Oilada shaxslararo va er-xotinlik munosabatlarida muloqotning tutgan o'rni va ahamiyati.Openscience. ISSN 2181- 0842

